

KORXONALARDA FOYDA SOLIG'INI HISOBLASHDA SOLIQ SOLISH OBYEKTлари, SOLIQ MAJBURIYATлари VA HISOBLASH ASOSлари

Sattorov Tohir

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Buxgalteriya hisobi kafedrası Assistanti"*

Mahmudjonov Shohjaxon

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Shirinboyev Nurjaxon

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Umirov Doniyor

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu mavzuda korxonalarda foyda solig'ini hisoblash jarayonida soliq solish obyektlari, soliq majburiyatlari hamda soliqni hisoblashning asosiy iqtisodiy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Foyda solig'i korxona moliyaviy natijasidan kelib chiqib shakllanadigan majburiy to'lov bo'lib, uning hisoblanishi soliq solinadigan foydani aniqlash, daromad va xarajatlarni to'g'ri tasniflash hamda amaldagi soliq stavkalarini qo'llashga asoslanadi. Shuningdek, korxonalarning soliq majburiyatlarini bajarish tartibi, soliq hisobotlarini taqdim etish muddatlari va soliq intizomini ta'minlash masalalari yoritiladi. Tadqiqot korxonalarda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish va moliyaviy shaffoflikni oshirishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Foyda solig'i, soliq solish obyekti, soliq majburiyati, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliq hisobi, soliq deklaratsiyasi, soliq solinadigan foyda, korxona moliyasi, soliqqa tortish mexanizmi.*

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuridik shaxslar faoliyatini soliqqa tortish tizimi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Xususan, korxonalardan olinadigan foyda solig'i iqtisodiy munosabatlarning eng asosiy va murakkab elementlaridan biri bo'lib, u korxona faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalariga bevosita bog'liq holda hisoblanadi. Ushbu soliq turining to'g'ri shakllantirilishi nafaqat davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki korxonalar moliyaviy intizomi va samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, foyda solig'ining soliq solish obyekti yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi hisoblanadi. Soliq solinadigan foyda esa jami daromadlardan iqtisodiy jihatdan asoslangan va qonunchilikda ruxsat etilgan xarajatlarni chegirib tashlash orqali aniqlanadi. Shu sababli daromadlar va xarajatlarni to'g'ri tasniflash, ularni hujjatlashtirish hamda soliq bazasini aniq shakllantirish foyda solig'ini hisoblash jarayonining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Mazkur masalalar O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini isloh qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2020-yil 30-dekabrdagi PF-5998-sonli “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, shuningdek Soliq ma‘murchiligini takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalari bilan tartibga solinadi. [1, 2] Ushbu hujjatlar soliq bazasini aniqlashni soddalashtirish, soliq yukini optimallashtirish va korxonalarda moliyaviy shaffoflikni oshirishga qaratilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, foyda solig‘i bazasini to‘g‘ri aniqlash korxonaning moliyaviy natijalariga, davlat byudjeti tushumlariga hamda iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois ushbu mavzuni chuqur o‘rganish soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va korxonalar moliyaviy boshqaruvini yaxshilash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Korxonalarda foyda solig‘ini hisoblash, soliq solish obyektlarini aniqlash hamda soliq majburiyatlarini shakllantirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu moliyaviy hisob, soliqqa tortish nazariyasi hamda korxona moliyasini boshqarish fanlari kesimida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, foyda solig‘i korxona moliyaviy natijasining yakuniy bosqichi sifatida qaralib, uning to‘g‘ri hisoblanishi iqtisodiy barqarorlik va fiskal tizim samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Mahalliy iqtisodchi olim A.S. Juraev soliqqa tortish tizimining nazariy asoslarini o‘rganar ekan, soliq bazasining to‘g‘ri shakllantirilishi soliqqa tortishning adolat tamoyilini ta‘minlashda asosiy omil ekanligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, korxona daromadlari va xarajatlarining iqtisodiy mazmuniga ko‘ra to‘g‘ri tasniflanishi foyda solig‘i hisobining aniqligini belgilab beradi. Shu bilan birga, muallif soliq hisobining shaffofligi yashirin iqtisodiy faoliyatni kamaytirishda muhim vosita ekanligini asoslaydi.[3] M.Q. Pardaev ilmiy qarashlarida soliq majburiyatlari va ularning bajarilishi korxonaning moliyaviy intizomi bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. U foyda solig‘ini hisoblash jarayonida soliq davrining yakuniy natijalari asosiy rol o‘ynashini, soliq majburiyatlarining to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishi esa korxona ishonchliligining muhim ko‘rsatkichi ekanligini ta‘kidlaydi.[4] Pardaevning yondashuvi soliq to‘lovlarini boshqaruv qarorlarining ajralmas qismi sifatida ko‘rishga asoslanadi. M.M. Tulaxodjayeva soliq imtiyozlarining iqtisodiy mohiyatini tadqiq etar ekan, foyda solig‘i bo‘yicha beriladigan imtiyozlar korxonalar investitsion faolligini oshirishda muhim rag‘batlantiruvchi omil ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, soliq imtiyozlari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u imtiyozlarning samaradorligi ularning maqsadli va muvozanatli qo‘llanilishiga bog‘liqligini ham ta‘kidlaydi.[5] I.T. Abdukarimov esa foyda solig‘ini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida o‘rganib, IAS 12 “Income Taxes” standartining amaliy ahamiyatini asoslab beradi. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, foyda solig‘ini hisoblashda vaqtinchalik farqlarni hisobga olish, kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlarini aniqlash moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini oshiradi. Bu esa korxona moliyaviy natijalarining real holatini aniq aks ettirish imkonini beradi.[6] Xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda foyda solig‘i korporativ moliyaviy hisobotning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Rivojlangan mamlakatlar

amaliyotida daromadlarni tan olish, xarajatlarni moslashtirish hamda soliq bazasini aniqlashda yagona yondashuvlar qo'llaniladi. Bu yondashuvlar moliyaviy axborotning shaffofligini ta'minlash va investorlar uchun ishonchli ma'lumotlar yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda korxonalarda foyda solig'ini hisoblash, soliq solish obyektlarini aniqlash hamda soliq majburiyatlarini shakllantirish jarayonlarini o'rganishda iqtisodiy tahlil metodi qo'llanildi. Iqtisodiy tahlil metodi korxona moliyaviy ko'rsatkichlarini, xususan daromadlar, xarajatlar va soliq solinadigan foyda o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganishga imkon beradi. Ushbu metod yordamida foyda solig'i bazasining shakllanish mexanizmi, uning tarkibiy elementlari hamda soliq majburiyatlarining hisoblanish tartibi tahlil qilindi. Shuningdek, iqtisodiy tahlil metodi asosida korxona moliyaviy natijalari o'zgarishining soliq bazasiga ta'siri o'rganildi va daromad hamda xarajatlarning to'g'ri tasniflanishi foyda solig'i hisobining aniqligini ta'minlashi asoslab berildi.

Tahlil va natijalar. Korxonalarda foyda solig'ini hisoblash jarayoni iqtisodiy jihatdan murakkab bo'lib, u korxonaning moliyaviy natijalari, daromad va xarajatlar tarkibi hamda soliq qonunchiligi talablari bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu jarayonda asosiy e'tibor soliq solish obyektini to'g'ri aniqlash va soliq bazasini haqqoniy shakllantirishga qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq foyda solig'ining soliq solish obyekti sifatida korxonaning soliq solinadigan foydasi olinadi. Bu ko'rsatkich jami daromadlardan qonunchilikda ruxsat etilgan xarajatlarni chegirib tashlash orqali aniqlanadi. Tahlil jarayonida korxona daromadlari uch asosiy guruhga bo'linishi aniqlandi: mahsulot (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan tushgan daromadlar, moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hamda boshqa daromadlar. Ushbu daromadlar korxonaning umumiy foyda shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Amaliy ma'lumotlarga ko'ra, jami daromadlarning katta qismi ishlab chiqarish va realizatsiya faoliyatiga to'g'ri kelishi korxonaning asosiy faoliyati barqarorligini ko'rsatadi. Xarajatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korxona xarajatlari ishlab chiqarish xarajatlari, davr xarajatlari hamda boshqa chegiriladigan xarajatlardan iborat bo'lib, ular soliq bazasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Soliq qonunchiligiga ko'ra, faqat iqtisodiy jihatdan asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarga foyda solig'i bazasidan chegirib tashlanadi. Bu esa soliq hisobining shaffofligi va aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tahlil jarayonida amortizatsiya ajratmalarining ham muhim o'rni borligi aniqlandi. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qiymatining eskirishini xarajatlarga kiritish korxonaning soliq solinadigan foydasini kamaytiradi va investitsion faoliyatni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, ayrim xarajatlar turlarining cheklangan yoki umuman chegirib tashlanmasligi soliq bazasining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, soliq imtiyozlari va preferensiyalar ham foyda solig'i hisobiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida tahlil qilindi. Ular korxonalarining investitsion faolligini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada korxona uchun real soliq yukining kamayishi kuzatiladi. Xalqaro amaliyot nuqtayi nazaridan foyda solig'ini

hisoblashda IAS 12 “Income Taxes” standartining qo‘llanilishi alohida ahamiyatga ega. Ushbu standartga ko‘ra, vaqtinchalik farqlar va kechiktirilgan soliq majburiyatlari hisobga olinadi. Bu esa korxona moliyaviy hisobotlarining yanada aniq va shaffof bo‘lishini ta‘minlaydi.

Tadqiqot natijalari korxonalarda foyda solig‘ini hisoblash jarayoni bir nechta muhim bosqichlardan iborat ekanligini ko‘rsatdi. Birinchi navbatda, soliq solish obyekti sifatida korxonaning soliq solinadigan foydasi olinishi va uning to‘g‘ri aniqlanishi soliq hisobining asosiy sharti ekanligi tasdiqlandi. Soliq solinadigan foyda jami daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi farq asosida shakllanadi. Ikkinchi natija shundan iboratki, korxona daromadlari ichida mahsulot sotishdan tushgan tushum asosiy ulushni tashkil etadi. Bu esa korxona foydasining shakllanishi bevosita asosiy ishlab chiqarish faoliyatiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Moliyaviy va boshqa daromadlar esa qo‘shimcha daromad manbai sifatida soliq bazasini kengaytiradi. Uchinchi natija xarajatlar tarkibi bilan bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish xarajatlari eng katta ulushni egallashi aniqlandi. Bu esa korxona xarajatlarini boshqarish samaradorligi foyda solig‘i miqdoriga bevosita ta‘sir qilishini bildiradi. Davr xarajatlari va boshqa xarajatlarning ham soliq bazasiga ta‘siri sezilarli darajada ekanligi qayd etildi. To‘rtinchi natija sifatida amortizatsiya ajratmalari soliq yukini kamaytiruvchi muhim omil ekanligi aniqlandi. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha eskirish xarajatlari soliq solinadigan foydani kamaytiradi va investitsion jarayonlarni rag‘batlantiradi. Soliq imtiyozlari korxonalar uchun muhim moliyaviy

Foyda solig‘ini hisoblash jarayoni korxona moliyaviy boshqaruvinining muhim elementi bo‘lib, u daromad va xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish, soliq bazasini aniq shakllantirish hamda soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishni talab etadi. Tadqiqot natijalari ushbu jarayonni takomillashtirish korxona samaradorligini oshirishga va davlat budjeti barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Taklif va xulosalar. Korxonalarda foyda solig‘ini hisoblash tizimini takomillashtirish, soliq bazasini shakllantirish jarayonini soddalashtirish hamda soliq majburiyatlarining to‘liq va shaffof bajarilishini ta‘minlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchi taklif sifatida korxonalarda foyda solig‘ini hisoblash jarayonini to‘liq raqamlashtirish va sun‘iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan soliq tahlil tizimini joriy etish zarur deb hisoblanadi. Amaldagi tizimda ko‘plab hisob-kitoblar inson omiliga bog‘liq bo‘lib, bu esa xatoliklar, noto‘g‘ri tasniflash va soliq bazasini sun‘iy kamaytirish kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois korxonalarning buxgalteriya dasturlari bevosita soliq organlari bazasi bilan integratsiya qilinib, daromad va xarajatlar real vaqt rejimida avtomatik tahlil qilinadigan tizim yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunday tizimda sun‘iy intellekt algoritmlari korxona moliyaviy operatsiyalarini avtomatik ravishda tahlil qilib, soliq solish obyektni aniqlaydi, xarajatlarning qonuniyligini tekshiradi va soliq bazasini avtomatik hisoblab beradi. Natijada inson omili kamayadi, soliqlardan qochish holatlari keskin qisqaradi hamda davlat budjeti daromadlarining

barqarorligi oshadi. Bundan tashqari, ushbu tizim korxona rahbariyati uchun ham moliyaviy qarorlar qabul qilishda tezkor analitik ma'lumotlar taqdim etadi.

Ikkinchi taklif sifatida “real vaqt rejimida dinamik soliq stavkalari modeli”ni joriy etish taklif qilinadi. Amaldagi tizimda foyda solig'i stavkalari ko'pincha qat'iy belgilangan bo'lib, ular korxonalarining moliyaviy holati va iqtisodiy sikllarga moslashuvchan emas. Dinamik soliq stavkalari modeli esa korxona foydalilik darajasi, investitsion faolligi va iqtisodiy sektor holatiga qarab avtomatik o'zgarib boradi. Masalan, yuqori investitsiya kiritayotgan yoki yangi ish o'rinlari yaratadigan korxonalar uchun soliq stavkasi pasaytirilishi, barqaror va yuqori foyda oluvchi, ammo investitsiya faolligi past korxonalar uchun esa stavka nisbatan yuqoriroq bo'lishi mumkin. Bu tizim iqtisodiyotda adolatli raqobatni kuchaytiradi, investitsion muhitni yaxshilaydi va korxonalarni real iqtisodiy faoliyatni kengaytirishga undaydi. Ushbu modelning yana bir afzalligi shundaki, u iqtisodiyotdagi “soyali foyda”ni kamaytiradi, chunki korxonalar soliq yukini optimallashtirish uchun real investitsion faoliyatga ko'proq e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, bu tizim davlat uchun ham fiskal barqarorlikni saqlab turish imkonini beradi, chunki soliq tushumlari iqtisodiy faollikka mos ravishda muvozanatlashadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqot davomida korxonalarda foyda solig'ini hisoblash, soliq solish obyektlarini aniqlash hamda soliq majburiyatlarini shakllantirish jarayonlari nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, foyda solig'i korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi eng muhim fiskal instrumentlardan biri bo'lib, u davlat budjeti daromadlarining barqaror shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, foyda solig'i bazasi korxona jami daromadlaridan iqtisodiy jihatdan asoslangan xarajatlarni chegirib tashlash orqali shakllantiriladi. Ushbu jarayonda daromad va xarajatlarning to'g'ri tasniflanishi, hujjatlashtirilishi hamda moliyaviy hisob standartlariga muvofiq yuritilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, korxona daromadlari tarkibida asosiy ulush mahsulot (ish, xizmat) realizatsiyasidan tushgan tushumlarga to'g'ri kelishi, bu esa korxona foydasining asosiy manbai ishlab chiqarish faoliyati ekanligini ko'rsatadi. Xarajatlar tarkibida esa ishlab chiqarish xarajatlari yetakchi o'rinni egallaydi va ular soliq bazasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar natijasida amortizatsiya ajratmalari, soliq imtiyozlari hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IAS 12) foyda solig'i hisobining muhim elementlari ekanligi aniqlandi. Ushbu omillar korxona soliq yukini optimallashtirish, investitsion faollikni oshirish hamda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, soliq majburiyatlarining o'z vaqtida va to'liq bajarilishi korxona moliyaviy intizomining asosiy ko'rsatkichi ekanligi asoslab berildi. Soliq hisobining to'g'ri yuritilishi nafaqat korxona ichki boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ham ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahrir). – Toshkent, 2020. – <https://www.lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2016. – <https://www.lex.uz>
3. Juraev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 312 b.
4. Pardaev M.Q. Moliyaviy tahlil va boshqaruv hisobi. – Toshkent, 2020. – 280 b.
5. Tulaxodjayeva M.M. Soliqlar va soliq tizimi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 295 b.
6. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobot va xalqaro standartlar. – Toshkent, 2021. – 310 b.